

## KIMYO FANINING O'QITISH METODIKASI.

*Abdirazzoqova Shoxista Jo'raqulovna*

*Samarqand viloyati Ishtixom tumani 8 - umumta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Hozirgi kun ta'lim jarayonida yuksak intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning istiqbolli yo'llarini izlab topishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Kimyo, o'qitish metodikasi, kimyoviy moddalar, kimyoviy jarayonlar, pedagogik texnologiyalar.

Kimyo fani ham boshqa fanlar qatorida, odamlarning amaliy faolyati natijasida vujudga kelgan. Kimyoga doir dastlabki bilimlarni o'rganish dastlab qachondan boshlanganligi noma'lum, insoniyatqachomdan buyon olovdan foydalana boshlagani, metallarga termik ishlov berishni qachon o'rgangani ma'lum emas. Lekin oziq-ovqat tayyorlash, kundalik ehtiyoj uchun mahsulotlarga kimyoviy kimyoviy ishlov berishda kimyoviy bilimlarning ortib borishi insoniyat rivojida katta burilishlarga olib kelgan. [1] Kimyoni o'qitishning eng muhim omillaridan biri, uzluksiz o'quv tizimida yangi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ilg'or va boy tajribalarni dars jarayonlarida qo'llash, jumladan, kimyo fanini o'qitishda talabalarning fanni chuqur bilishlariga erishishning muhim omillaridan biri, ma'ruzalarda kimyoviy jarayonlarni aks ettiruvchi turli sxema va jadvallardan, ko'rgazmali qurollardan, maket va kimyoviy moddalardan hamda interfaol usullardan keng foydalanishdir. Pedagogik texnologiya bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha-yo'ndashuvdir. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish ko'rsatmalarini amalga oshirish maqsadida pedagog-olim o'z talabalarining fanni chuqur va puxta o'zlashtirishlari uchun ma'ruza matnlarini bayon qilishda dars jarayonini tushunarli, oson va qulay usullarda olib borsa, ularning faolligi va fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Buning uchun ma'ruzalarda

butun guruhning barcha talabalari diqqatini jalb qiluvchi yangicha yondashish, yangi didaktik materiallar kompleksidan keng foydalanish muhim rol o'ynaydi. Kimyo darslarida o'quvchilarda juda ko'p tajribaviy ko'nikmalar shakllanadi. [2] Kimyo fanidan dars olib boradigan o'qituvchi o'qitish mazmunini tushuntirishi, shu bilan birga tadqiqot metodlarini yaxshi egallagan bo'lishi kerak. Muammoli vaziyat asosidagi o'qitishda tashkilotchi rovida chiqib turib, o'qituvchi o'quvchilar uchun tayyor bilimlar manbasi, uni tashuvchisi va direktivi emas, balki ko'proq rahbar va hamkor bo'lishi mo'ljallanadi. Kimyo fani bo'yicha muammoli darslarga tayyorlanish mobaynida o'qituvchi:

o'quvchilar duch keladigan vaziyatlarni muammoli ekanligini ziyraklik bilan sezishi va guruh oldiga o'quvchilar tushunadigan holda maxsus fanga oid haqiqiy o'quv masalalarini qo'yishni bilishi;

kimyo fani bo'yicha o'quvchilar tomonidan bajarilayotgan barcha jarayon (vazifalarni hal etish, muammoni qo'yish, yechish, natijani tekshirish va hokazolar)ni muvofiqlashtiruvchisi va o'quvchilarga hamkor vazifalarni bajarish;

o'quvchilarni muammo va uni chuqur tadqiq etish jarayoniga jalb etishga, ijodiy fikrlayotgan o'quvchilarni ustalik bilan qo'yilgan savollar yordamida rag'batlantirishga harakat qilish;[3]

o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy yechimlarini topishda qilgan harakatlarida qo'yib yuborgan xatolariga o'zining yordamini taklif etgan holda chidam va toqatli bo'lish yoki o'quvchilar o'zlarining yechimini izlashlarida ishonchsizlik hosil qilayotgan paytlarda, ularni zarur axborot manbalariga yo'llab yuborish kabi tajribalarni egallashi lozim.

Kimyo o'qitishning metodlari, shakllari, manbalari o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, kimyo o'qitish nazariyasining eng muhim bo'limlari sanaladi. O'qitish metodi falsafiy nuqtai - nazardan ta'lim jarayonida ta'lim mazmunini harakatlantirish shakli bo'lib hisoblanadi. Agar predmetning mazmuni fanning didaktik ekvivalenti bo'lib hisoblansa, o'qitish metodlari o'rganilayotgan fan yoki

bilish lozim bo'lgan narsalar metodlarining didaktik ekvivalentidir. Didaktikada fanni o'rganish metodlari va o'qitish metodlari mavjud. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lim, tarbiya beruvchi ularni rivojlantiruvchi metodlarni optimal tanlashdan iborat. O'qitish metodi – o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bo'lib hisoblanadi. Kimyo o'qitish metodikasining o'ziga xos alohida xususiyatlari mavjud ular:

1. Kimyo o'qitish mazmuni va metodikasi amaliyotga asoslangan nazariy fan. [4]

2. O'quvchilarning bilish faoliyati tafakkur qirralarini o'stirishga qaratilgan bo'lib, moddaning aniq xossasi o'zgarishi, holati, xossalari, tuzilishi, tarkibi kabilar fikr yuritishga o'quvchilarni o'ylashga olib keladi. Har bir metod ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni qaerda samarali amalga oshirsa o'sha yerda o'sha jarayonda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Metodlar o'zining qo'llanilishi bilan ham o'quvchilarni tarbiyalaydi. Shu sababli o'qituvchi har bir metodni tanlaganda uchala funktsiyani samarali amalga oshirishiga e'tibor berishi kerak. Metodlarni optimal tanlash muammolari mavjud. Unda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

1) O'qitishning qonuniyatlari va prinsiplari.

2) O'qitishning maqsad va vazifalari.

3) Shu fan mazmuni ning hamda o'rganilayotgan mavzuning mazmuni va uzviy mosligi.

4) Maktab o'quvchilarning o'qish imkoniyatlari. (yoshi, tayyorgarlik darajasi, sinf jamoasining xususiyatlari).

5) Tashqi sharoitning o'ziga xosligi.

6) O'qituvchining o'z imkoniyatlari.

O'qitish metodlarining tuzilishi har xil bo'lib, ular ma'lum jarayonning takomillashuvi bilan to'xtovsiz ravishda o'sib boradi. Bu o'sish jamiyatda madaniyat darajasini o'sishiga bog'liq. Shu sababli o'qitish metodlarini tartibga solish va klassifikasiyalash zarurati kelib chiqadi. Maktablarda bilim asoslarini berish lozim. Mustaqil O'zbekistonimiz maktabi tarbiyalovchi ta'limni amalga oshiradi.

Bu maktab beradigan ta'limning tarbiyalovchi xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilar dalialiktik-materialistik dunyoqarash asoslari hosil qiluvchi chinakam ilmiy bilimlar beradi. Bizning maktabimizda ta'lim berishning talabalarda aktivlik, tashabbus, mustaqil fikrlash, qo'yilgan maqsadga intilish, o'z bo'rchini his etish, boshqa metod va usullari tarbiya jihatidan katta rol o'ynaydi. Kimyo o'qitishning metodlari turli usullarda olib boriladi. Metod – bu «yo'l» demakdir. U dogmatik, illyustrativ, evristik bo'lishi mumkin. O'qitishning dogmatik metodi – o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rsazma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat talabalarni bu materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat. O'qitishning ilyustrativ metodi – o'qituvchi o'quvchiga tayyor bilimlarni tushintirib, har xil xususiy metodlarni qo'llaydi. Ular: o'qituvchining tushuntirishi, darslik bilan ishlash, magnitafon va hakoza bilan ishlash. Bunday ko'rgazmalar eksperiment, modellar, ekran qo'llanmalari tablisalardan foydalaniladi. O'qituvchi laboratoriya tajribalarini ko'rsatib tushuntirib beradi. Ilyustrativ metodda o'qituvchi ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarish texnikasi va metodikasini bajarish tartibini qo'llaganda ham foydalanadi. Bu metod o'quvchilarda minimum bilimlar zapasi yig'ilgach kengroq qo'llaniladi. O'quvchilarda amaliy o'quv ko'nikmalarini shakllantirish, tajribalarni bajarib ko'rsatish texnikasini shakllantirishda M: probirkaga eritmani qo'yish, qoshiqchadagi eritmani bo'g'latish kabilarda tushuntirib ko'rsatish amalga oshiriladi. O'qitishning illyustrativ metodi – kimyo kursining boshlang'ich qismida ko'p qo'llanadi. Bu davrda o'quvchilarda ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmaydi. Shu davrda o'qituvchi tajribalarni o'zi ko'rsatib tushuntirib beradi. Bu metoddan o'quvchilar tajribalarni mustaqil bajarib izohlab berishda ham keng foydalaniladilar. O'qitishning evristik metodi - o'quvchilarning o'zlari qiladigan ish asosida tuziladi, o'quvchilar bevosita o'qituvchining faol ishtiroki ostida kashfiyot qiladilar. Bu metodning «evristik» degan nomi «tadqiqot» metodi degan so'zdan kelib chiqqan. Masalan, kaliy yodid eritmasiga kraxmal kleystriini qo'ysak rang sezilmaydi, alohida xlorli suvga kraxmal kleystriini qo'shsak yana rang

o'zgarishi sezilmaydi. Uch komponentni birgalikda qo'shib aralashtirsak kraxmal ko'k tusga kiradi. Sababini esa talabalar o'zlari izohlab berishlari lozim. Bu qisman izlanuvchanlikdir. Izlanuvchanlik metodi mustaqil ishlash, mustaqil izlanishning bir turi bo'lib hisoblanadi. O'quvchi nazariy bilimlar to'g'riligini amalda sinab ko'radi. Masalan, eksperimental masalalar yechishda bu metoddan foydalaniladi. Klassifikasiyalash asosiy xarakterga (nisbiy xarakter) ega.

### **Xulosa:**

Amaliyotda metodlarning bir nechtasidan bir vaqtda foydalaniladi. Ular o'zaro bog'liqlikka ega. Klassifikasiyada har xil holatlar asosiy belgi sifatida qabul qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. - Toshkent Nizomiy nomli DTPU, 2013.[1]**

**2. Кузнецов В. И. Эволюция представлений об основных законах химии.— М.;Наука, 1967, 311 с.[2]**

**3. Asqarov I.R. Mamasoliyev M.M., A.X. Majidov. "Maktabda kimyodan amaliy mashg'ulotlar". Toshkent. "O'qituvchi". 1992.-286 bet.[3]**

**4. Asqarov I.R, G'opirov K.G'. Rustamov A. Rahimov. M. "Kimyodan test". Toshkent. "O'qituvchi". 1994.-256 bet[4]**